XALQ DEPUTATLARI KOGON TUMANI KENGASHINING
Q A R O R I

2026-yil 19-mart VII-19-38-2-36-K/26 Kogon tumani

Kogon tumani bo‘yicha 2026-yilda “Alkogol mahsulotlari”ni realizatsiya qilish huquqi hamda umumiy ovqatlanish korxonalari tomonidan “Alkogol mahsulotlari”ni realizatsiya qilish uchun yig‘imlarning cheklangan stavkalarini oshirish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining 2025-yil 25-dekabrdagi “2026-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi O‘RQ–1105-sonli Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 26-dekabrdagi “Mahalliy budjetlar va budjet tashkilotlarining moliyaviy barqarorligini oshirish, budjet intizomini kuchaytirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ–387-sonli qarori ijrosini ta′minlash, shuningdek, Kogon tumani Iqtisodiyot va moliya bo‘limining 2026-yil 28-fevraldagi 02-32/1-sonli hamda tuman soliq inspeksiyasining 2026-yil 28-fevraldagi 21-02/771-sonli xatlarini inobatga olib, O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6 va 24-moddalariga muvofiq, Xalq deputatlari Kogon tumani Kengashi

Q A R O R Q I L A D I:

1. O‘zbekiston Respublikasining 2025-yil 25-dekabrdagi “2026-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi O‘RQ–1105-sonli Qonuniga 9-ilova bilan 2026-yil uchun tovarlarning ayrim turlari bilan chakana savdo qilish huquqi uchun yig‘imlarning cheklangan stavkalari tasdiqlanganligi, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 26-dekabrdagi “Mahalliy budjetlar va budjet tashkilotlarining moliyaviy barqarorligini oshirish, budjet intizomini kuchaytirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar” to‘g‘risidagi PQ-387-sonli qarori 2-bandi «V»-kichik bandida xalq deputatlari tuman va shahar kengashlariga alkogol mahsulotlarini (bundan pivo mustasno) realizatsiya qilish huquqi uchun hamda umumiy ovqatlanish korxonalari tomonidan alkogol mahsulotlarini (bundan pivo mustasno) realizatsiya qilish huquqi uchun yig‘imlarning cheklangan stavkalarini 20 foizgacha oshirish vakolati berilganligi

hamda mazkur yigʻimlardan tushgan tushumlar toʻliq miqdorda tuman (shahar)lar budjetlariga yoʻnaltirilishi belgilab qo`yilganligi maʼlumot uchun qabul qilinsin.

2. Kogon tuman hududida 2026-yil uchun “Alkogol mahsulotlari”ni (bundan pivo mustasno) realizatsiya qilish huquqi hamda umumiy ovqatlanish korxonalari tomonidan “Alkogol mahsulotlari”ni (bundan pivo mustasno) realizatsiya qilish uchun yigʻimlarning miqdorlari 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Kogon tuman hokimining birinchi oʻrinbosari M.Malikov va tuman soliq inspeksiyasi (S.Axmedov) bilan birgalikda mazkur qaror oʻz vaqtida va samarali bajarilishini taʼminlash choralarini koʻrsin.

4. Tuman hokimligi axborot xizmati (A.Qaxxorov) mazkur qarorni tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirsin.

5. Mazkur qaror ijrosining nazorati Xalq deputatlari Kogon tumani Kengashining Mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari boʻyicha doimiy komissiyasi raisi A.Ravshanov zimmasiga yuklatilsin.

6. Ushbu qaror rasmiy e’lon qilingan kundan e’tiboran uch oy muddatdan soʻng kuchga kiradi.

Kengash raisi **TURSUNOVA XURMAT TOSHEVNA**

Xalq deputatlari Kogon tumani
Kengashining
2026-yil 19-martdagi
VII-19-38-2-36-K/26 -son qaroriga
1-ilova

2026-yil uchun Kogon tumani hududida “Alkogol mahsulotlari”ni (bundan pivo mustasno) realizatsiya qilish huquqi hamda umumiy ovqatlanish korxonalari tomonidan “alkogol mahsulotlari”ni (bundan pivo mustasno) realizatsiya qilish uchun yig‘im stavkalari

№	Yig‘im turi	Bir oyga chegaralangan stavkalar (so‘mda)		
		Bazaviy stavka *(O‘RQ-1105 25.12.2025y 9-ilova)*	Qo‘llanilgan koeffitsiyent *(0,2 gacha)*	2026-yil uchun yig‘im stavkasi
1	Alkogol mahsulotlarini (bundan pivo mustasno) realizatsiya qilish huquqi uchun yig‘im	300 000	0,2	360 000
2	Umumiy ovqatlanish korxonalari tomonidan alkogol mahsulotlarini (bundan pivo mustasno) realizatsiya qilish huquqi uchun yig‘im	150 000	0,2	180 000